

O'ZBEKISTONNING 2023-YIL YANVAR-NOYABRDAGI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI

*Ashurov Shuhratbek Qudrat o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi
shuhratbekashurov99@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda tashqi savdo siyosatining iqtisodiyotni rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyati, xalqaro savdoning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish integratsiyalashuvi kengayishi va takomillashishi, oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari eksportining rivojlanish ko‘rsatkichlari, oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atlari, mahsulotlar eksporti geografiyasi keltirilgan. Tashqi savdo siyosati mamlakatimiz iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega. Bu siyosat iqtisodiy o‘sishni yanada kuchaytirish, mamlakatimizni xalqaro savdoning o‘ziga xos shakllarini rivojlantirish, xalqaro bozorlarda o‘zimizning mahsulotlarimizni sodda kirishga muvaffaqiyatli tayyorlashni ta’minalash maqsadini o‘z ichiga oladi. Xalqaro savdo rivojlanishi esa ishlab chiqarish integratsiyalashuvi va takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Mamlakatning tashqi savdo siyosati bu sohadagi integratsiyalashuv va takomillashuvi jarayonlarini qanday rivojlantirish, sodda kirishning qanday texnologik jarayonlarga asoslanganligi mamlakatning iqtisodiyotidagi rivojlanishni samarali ta’minalashda katta rol oynaydi. Oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari eksportining rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotining katta rivojlanishini ko‘rsatadi. Oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari, ulardan tayyorlagan ishlab chiqarishni rivojlantirish, xalqaro savdoni o‘z ichiga olgan mamlakatimiz uchun muhimdir. Oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘sishi, bu sohada kengayish va yangi texnologiyalarni qabul qilish, mamlakatimizni xalqaro bozorda mustahkamlash uchun zor ishlar olib bormoqda. Mahsulotlar eksporti geografiyasi esa mamlakatimizning savdo munosabatlari yuritishida muhim ahamiyatga ega. Xalqaro savdoda ishlab chiqarilgan elektrotexnika mahsulotlarimizni qaysi davlatlarga va mintaqalarga sotishimiz, bu sohada rivojlanishimizning ko‘rsatkichlaridan biridir. Bu geografiya kengaytirilganligi esa mamlakatimizning savdo aloqalarini yanada kengaytirib, yangi bozorlarga kirish uchun zarur shartlarni yaratishda muhim rol oynaydi.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, iqtisodiy o‘sish, tashqi iqtisodiy aloqalar, oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari import, eksport.

Annotation: The article explores the role and significance of the foreign trade policy in the economic development of our country, emphasizing the expansion and diversification of production integration as a result of the development of international

trade. The growth and development of the export of food and agricultural products, as well as the increasing production volume of these goods, are highlighted. The article also discusses the geographical distribution of product exports. The foreign trade policy plays a crucial role in our country's economy. It aims to further strengthen economic development, enhance the distinctive features of our products in international trade, and successfully prepare for the straightforward entry of our goods into global markets. The international trade development is closely linked with the integration and modernization of production processes. The article underscores the need to develop strategies for enhancing the integration and modernization processes in the context of the foreign trade policy, emphasizing the importance of adapting to technological advancements in facilitating effective economic development. The growth of the export of food and agricultural products signifies a significant advancement in our country's economic development. The production volume increase in these sectors is crucial for the international trade of our nation. The expansion of production and the adoption of new technologies play a vital role in fortifying our position in the global market. The geographical distribution of product exports holds substantial importance in shaping our country's trade relations. Selling our manufactured electronic products to specific countries and regions is indicative of our developmental achievements. The broadened geographical scope contributes to the expansion of our trade relations and plays a crucial role in creating necessary conditions for entering new markets.

Key terms: foreign trade, economic development, foreign economic relations, food, agricultural products, import, export.

KIRISH Dunyoning globallashuv sharoitida jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, xususan global inqiroz, turli mamlakatlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan harbiy harakatlar sharoitida, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyat orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, biznesni qo‘sishimcha qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, tashqi xavf-xatarlar ta’sirini kamaytirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash, raqobatbardoshlik hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR O‘zbekiston iqtisodiyoti xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarini oshirishga yo‘naltirilgan tashqi bozorlarda tajriba orttirish imkoniyatlarini ko‘paytirish maqsadida qabul qilingan iqtisodiy islohotlar, mahalliy kompaniyalarga eksport salohiyatini oshirish uchun qo‘llanilayotgan qarorlar, va jahon savdosida raqobatdosh ustunlikni ta’minalash maqsadida amalga oshirilgan choratadbirlar natijasida 2023-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi (TSA) 57,3 mlrd. AQSH dollariga yetib, 2022-yilning yanvar-

noyabr oylariga nisbatan 11,9 mlrd. AQSH dollariga yoki 26,2% ga o'sib chiqdi. TSA, mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi va tovarlarning tashqi savdo statistikasida O'zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ajratib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi. Mamlakatimiz tashqi savdodagi ko'rsatkichlarida yil boshidan yilgacha o'sib borayotganligini ko'rsatish maqsadida TSAda eksport hajmi 23 204,3 mln. AQSH dollariga yetib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 30,6% ga ko'paydi. Import hajmi esa 34 105,8 mln. AQSH dollariga yetib, 23,3% ga ko'paydi. Hisobot davrida manfiy tashqi savdo balansi -10 901,5 mln. AQSH dollari qiymatida belgilangan va bu aksar mahalliy ishlab chiqaruvchilarimizni qo'llab-quvvatlash mexanizmining tobora takomillashib borayotganligidan kelib chiqqan o'zgarishlardan biri.

MUHOKAMA O'zbekiston Respublikasi jahonning 199 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (21,3 %), Rossiyada (15,5 %), Qozog'istonda (7,0 %), Turkiyada (5,0 %) va Koreya Respublikasida (3,7 %) qayd etilgan.

1-rasm.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollarri)				
XXR	Rossiya	Qozog'iston	Turkiya	Koreya Respublikasi
TSA – 12 231,4	TSA – 8 867,0	TSA – 4 005,4	TSA – 2 839,1	TSA – 2 111,7
Eksport: 2 274,3 Import: 9 957,0	Eksport: 3 006,5 Import: 5 860,5	Eksport: 1 286,6 Import: 2 718,6	Eksport: 1 175,4 Import: 1 663,6	Eksport: 37,2 Import: 2 074,6
21,3 %	15,5 %	7,0 %	5,1 %	3,7 %
Turkmaniston	Germaniya	Qирғиз Respublikasi	Fransiya	Afg'oniston
TSA – 970,1	TSA – 962,4	TSA – 877,7	TSA – 831,6	TSA – 784,1
Eksport: 160,5 Import: 809,6	Eksport: 72,0 Import: 890,5	Eksport: 599,8 Import: 277,9	Eksport: 385,9 Import: 445,8	Eksport: 774,6 Import: 9,5
1,7 %	1,7 %	1,5 %	1,5 %	1,4 %

Shu bilan birga mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini samarali ta'minlash uchun mavjud va potentsial tahdidlarni aniqlash, ularning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, faoliyatning asosiy yo'nalishlarini va ularni zararsizlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni shakllantirish, xavfsizlikni ta'minlash davlat vakolati ekanligini hisobga olgan holda qaror qabul qilishni amalga oshiradigan mexanizmni shakllantirish kerak [5].

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga

oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7 011 taga yetdi va ular tomonidan 15 050,5 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

2-rasm.



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda, shu sababli eksport qilinayotgan meva va sabzavotlar sifati va hajmi yildan-yilga o‘sish tendentsiyasini o‘z ichiga olmoqda. 2023-yil yanvar-noyabr oylarida 1 633,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan, bu esa 2022-yilning mos davriga nisbatan 1,4% ga yoki 23,1 ming tonnaga ko‘payganligini anglatadi. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (37,6%), Pokiston (16,5%), XXR (12,7%) hamda Qozog‘iston (10,4%) davlatlariga tashrif buyurib, 2023-yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 1 091,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,0% ga o‘sib chiqib, jami eksportdagagi ulushi 4,7% ni tashkil etdi.




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 80,8 mln. AQSH dollari 121,0 ming tonna 55,6 %	Xurmo 27,3 mln. AQSH dollari 50,3 ming tonna 37,0 %	Shaftoli shu jumladan nektarin 67,2 mln. AQSH dollari 87,2 ming tonna 1,3 %	Pomidor 40,9 mln. AQSH dollari 54,2 ming tonna 23,0 %
Uzum quritilgan 61,5 mln. AQSH dollari 52,2 ming tonna 17,6 %	Mosh 115,7 mln. AQSH dollari 148,5 ming tonna 47,7 %	Qovun va tarvuz 39,9 mln. AQSH dollari 147,6 ming tonna 7,9 %	Olxo'ri quritilgan 41,7 mln. AQSH dollari 34,0 ming tonna 55,2 %
Tariq 34,8 mln. AQSH dollari 15,3 ming tonna 6,4 m.	Piyoz 54,4 mln. AQSH dollari 263,8 ming tonna 45,9 %	Gilos 52,9 mln. AQSH dollari 45,0 ming tonna 58,9 %	O'rlik 40,7 mln. AQSH dollari 63,0 ming tonna 6,9 m.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



So‘nggi yillarda yengil sanoat sohasidagi islohotlar, yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarishda rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat O‘zbekiston uchun iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lib, aholi bandligining yuqori darajasini ta’minlayib, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘sishda muhim rol oynaydi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, to‘qimachilik mahsulotlarining eksport hajmlarining oshishini olib chiqarib, paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘sishma qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan natijalardan biri hisoblanadi. 2023-yil yanvar-noyabr oylari davrida 2 808,8 mln. AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan va umumiyligi eksportning 12,1% qismini tashkil etgan. Bu miqdor, o‘tgan yilga nisbatan 3,3% ga kamayganligini ko‘rsatadi. Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari ichida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (41,3%) va ip kalava (40,7%) katta ulushni egallagan mahsulotlar sifatida tanilgan. 2023 yilining boshidan noyabrga qadar, bu to‘qimachilik mahsulotlari 626 turdagি mahsulot dunyoning 63 ta davlatiga eksport qilindi.

NATIJALAR Tahlil natijasida O‘zbekistonning tashqi savdo faoliyati tadqiq etildi. O‘zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mamlakat hududlarining eksport va YaHMLarini statistik ko‘rsatkichlar yordamida ilmiy o‘rganish va ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish va modellashtirish katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Eksport hajmi turli statistik usullar va metodlardan foydalanib o‘rganish va ularni ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish sohani rivojlanishida ilmiy asoslangan natijalarga erishishga zamin yaratadi.

XULOSA Tovarlar savdosidan tashqari, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda transport tizimlari barpo qilinmoqda, tabiatni muhofaza qilish va o‘zgartirish masalalari hal qilish va o‘zgartirish masalalari hal etilmoqda. Bunda O‘zbekiston dunyoning yetakchi xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qilgan holda, davrning dolzarb muammolarini hal etishga ham jiddiy e’tibor qaratmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH), Yevrosiyo iqtisodiy hamdo‘stligi (YIH), Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT) va boshqa xalqaro tashkilotlar shular jumlasidandir. Savdo siyosati – budjet soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati va import yoki eksportni to‘g‘ridan-to‘gri cheklashlar orqali tartibga solishni o‘z ichiga olgan, nisbatan mustaqil yo‘nalishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eksport diversifikatsiyasi jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi ulushining katta bo‘lishiga barham berilishi, mahsulotlar eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytiradi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy. Davlatning tashqi savdoni takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksportni amalga oshirganda imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini takomillashtirish;
- Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlab yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni foyda solig'idan chegirish;
- Texnologiyani rivojlantirishdagi ilmiy konstruktorlik tajriba ishlarini davlat tomonidan moliyalashtirish kabilarni amalga oshirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 26.05.2000-yildagi 77-II-sون “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi qonuni.
2. Прохожев А., Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, №4, 2003.
3. СТАСЕВ М.А. роль обеспечения безопасности в системе внешнеэкономической деятельности для повышения национальной экономической безопасности стр 163
4. “O'zbekiston respublikasi tashqi savdo aylanmasi” 2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot
5. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие. М.: Фин-статинформ, 2004. С. 167.